



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

**Dildora Xakimova**

A.Avloniy nomidagi XTMAIBITI etakchi ilmiy xodimi

## KASBIY STANDARTLAR ASOSIDA PEDAGOGLARNI ATTESTASIYADAN O'TKAZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

**Annotatsiya.** Maqolada kasbiy standartlar asosida pedagoglarni attestatsiyadan o'tkazishning jahon tajribasini tahlil qilingan hamda attestatsiya mazmunini takomillashtirish shartlari ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy standartlar, attestatsiya, pedagog xodim, baholash, ta'lim sifati.

**Аннотация.** В статье проанализирован мировой опыт аттестации учителей на основе профессиональных стандартов и научно обоснованы условия совершенствования содержания аттестации.

**Ключевые слова:** профессиональные стандарты, аттестация, профессорско-преподавательский состав, оценка, качество образования.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 yanvardagi 4963-son "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarorixalq ta'limi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va

ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, umumiy o'rta ta'limning ilmiy asoslarini yaratish maqsadini ko'zda tutadi[1].

Ushbu maqsadlar ma'lum ma'noda xalq ta'limi pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazishning huquqiy asoslarini yangilash va kengaytirish, kasbiy standartlarni takomillashtirish zarurati ham belgilab beradi.

Ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan attestatsiya o'qituvchilarni kasbiy shakllantirish va rivojlantirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda attestatsiya ko'pincha rasmiy funksiyalarga tegishli bo'lib, uning pedagogik imkoniyatlarini baholaydi. Masalan, attestatsiyaga xodimning malakasi, bilim darajasi, uning qobiliyatlari, ishbilarmonligi yoki boshqa fazilatlari haqida mulohazalarini aniqlash mexanizmi sifatida qaraladi.

Mazkur konsepsiyaning uslubiy asosini kompetensiya va tizimli-faoliyat yondashuvlariga asoslanganligi tashkil etadi. Kompetensiyaviy yondashuv o'qituvchilarning ma'lum faoliyatlarda mavjud bilim va ko'nikmalaridan samarali foydalanish qobiliyatiga qaratilgan. Kasb standartlari terminologiyasiga ko'ra, attestatsiya doirasida baholash ob'ekti - bu tegishli mehnat harakatlarining asosi bo'lgan pedagog xodimlarning bilim va ko'nikmalaridan iborat. Attestatsiyadan o'tkazish tartiblarining cheklangan imkoniyatlarini hisobga olgan holda, o'qituvchilarning bilim va ko'nikmalari xususiyatini o'rganishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ushbu konsepsiya pedagog xodimlarning baholanadigan bilim va ko'nikmalari mavhum emas degan qoidaga asoslanadi, bular o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga mos ravishda kiritilgan va unda belgilangan vazifalar hal etilishini ta'minlaydi.

Tizimli-faoliyatli yondashuv o'qituvchining bilim va ko'nikmalarini uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishidagi baholash jarayonini ko'rib chiqish imkonini beradi. Shuningdek, attestatsiya jarayonining turli bosqichlarida o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlashning psixologik mexanizmlarini kiritish mumkin. Bunday holda o'qituvchining kasbiy rivojlanishi bir darajasidan ikkinchisiga o'tishi psixologik mexanizmlar doirasida amalga oshiriladi: a) egallab turgan lavozimiga muvofiqligi; b) birinchi malaka toifasi; v) yuqori malaka toifasi.

2019 yil 13-maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 392-son qarorida pedagog kadrlar attestatsiyasi ikki bosqichda o'tkazilishi belgilangan bo'lib, bular:

- birinchi bosqichda – attestatsiyadan o'tuvchilarning o'quv fani bo'yicha malaka sinovi natijalari, dars o'tish mahorati va mehnati samaradorligi ekspert guruhi tomonidan o'rganiladi hamda tegishli tavsiyalar tayyorlanadi;

- ikkinchi bosqichda – attestatsiya komissiyalari ekspert guruhi tomonidan o'rganilgan birinchi bosqich natijalarini tahlil qiladi, attestatsiya jarayonida to'plangan hujjatlar jamlanmasini (portfoliosini) o'rganadi va pedagog kadrlarni malaka toifasida (lavozimida) qoldirish yoki boshqa toifa (lavozim) berish to'g'risida qaror qabul qiladi[2].

SHuningdek, attestatsiya quyidagi baholash mezonlari bo'yicha o'tkaziladi:

- dars o'tish mahorati – dars tahlillari, ochiq darslar o'tganligi, ta'lim oluvchilarining reyting ko'rsatkichlari, ta'lim berish vositalari hamda shakllarini maqbul ravishda tanlashi, kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga hamda xorijiy tillar va ijtimoiy-siyosiy bilimlarga ega ekanligini aniqlash;

- mehnati samaradorligi – ta'lim oluvchilarning tayyorlaganligi, ta'lim oluvchilar va attestatsiyadan o'tuvchilarning tuman, shahar, viloyat, respublika, xalqaro ko'rik-tanlovlari, fan olimpiadalari va turli musobaqalarda erishgan yutuqlari;

- o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari – diplomida ko'rsatilgan tayyorlov, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisligi yoki ixtisosliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlari yoki davlat talablari mazmuni asosida o'tkaziladigan test (qog'ozda, onlayn, oflayn) yozma yoki ijodiy ish (jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun nazariy va amaliy sinovlar) natijalari.

Shu asosda o'qituvchilarni attestatsiyadan o'tkazish mazmunini yangilash va uni amalga oshirish tartiblarini takomillashtirishda quyidagi shartlarnitaklif qilish mumkin: a) kasbiy standartlarni qo'llash asosida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi darajasiga qo'yiladigan yangi talablarni hisobga olish; b) ta'lim sifatini baholash va ta'lim sifatini mustaqil baholashning ichki tizim mexanizmlaridan foydalangan holda attestatsiyadan o'tadigan talabgorlarning kasbiy faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish; v) birinchi va oliy malaka toifalariga muvofiqligi bo'yicha attestatsiyadan o'tayotgan shaxslarning kasbiy faoliyati natijalarini baholashda ekspertlar fikrini muvofiqlashtirish; d) axborot texnologiyalari resurslari (axborot portali) dan foydalanish o'qituvchining kasbiy faoliyati natijalari haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni to'plash va ta'lim munosabatlari ishtirokchilari tomonidan ushbu natijalar sifatini mustaqil baholashni tashkil etish.

Attestatsiyani tashkil etish va o'tkazishda konsepsiya attestatsiya mazmunini yangilash va uni pedagog xodimlarning turli lavozimlari uchun amalga oshirish tartiblarini takomillashtirishga universal yondashuvni o'rnatishni hisobga olishi kerak. Konsepsiya qoidalari har qanday jarayonda pedagogik faoliyatning o'zgarmasligini aks ettiradi va uning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi. Agar muayyan lavozimga tegishli kasbiy standart qabul qilinmagan yoki kuchga kirmagan bo'lsa, u holda baholash vositalari va tegishli tartiblarni ishlab chiqish o'qituvchilarning lavozim malaka tavsiflari talablari asosida amalga oshiriladi.

Ushbu konsepsiya attestatsiya mazmunini yangilash va uni amalga oshirish tartibini takomillashtirish istiqbollari attestatsiyadan o'tayotgan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarni oshirish va murakkablashtirishga emas, balki, o'qituvchining attestatsiyaga tayyorgarlik ko'rish va o'tishida o'z faoliyatini tizimlashtirishga qaratilgan.

### Adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y.

2. 2019 yil 13-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va maktabdan tashqari davlat ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 392-son qarori.

3. Kuzmina N.V., Mixalevskaya G.I. Otsenka professionalnoy deyatelnosti uchiteley // Akmeologicheskie problemy podgotovki prepodavateley: sborn. nauch. trudov. Вып. 1. – M.; SHuya: Issled. sentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 1998. – S. 42–56.

4. Smith B.L., Beason L., Graham B.D., Strader R.A. Examining Applicants for Admission and Completion of an Online Teacher Certification Program // Educational Technology & Society. – 2009. – 12 (1). – P. 214–229.

5. Zuzovsky Ruth. Teachers’ qualifications and their impact on student achievement // IERI Monograph Series: Issues and Methodologies in Large-Scale Assessments. – October 2009. – P. 37.